

O'RTA OSIYO HUDUDIDA BAYOZCHILIK MAKTABLARINING VUJUDGA KELISHI

Qalqonova Adolat Abdiraxmat qizi

*Alisher Navoiy nomidagi O'zbek tili va adabiyoti universiteti Matnshunoslik va adabiy
manbashunoslik kafedrası Ikurs magistranti*

qalqonovaa@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada bayozchilikning O'rta Osiyo hududida tarqalish sabablari, bayozchilik maktablarining vujudga kelishi, Qo'qon, Xorazm, Toshkent adabiy muhitida bayozchilikning rivojlanishi va XIX asr oxiri –XX asr boshlarida tuzilgan bayozlar haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar. Bayoz, bayozchilik makablari, Toshkent, Qo'qon, Xorazm, Muqimiy, Amiriy, Feruz, Xislat, Kamiy, O'rta Osiyo.

Abstract. This article provides information about the reasons for the spread of Bayozism in Central Asia, the emergence of Bayozism schools, the development of Bayozism in the literary environment of Ko'kand, Khorezm, Tashkent, as well as information about bayozs compiled in the late 19th and early 20th centuries.

Key words. Bayoz, Bayozism schools, Tashkent, Kokand, Khorezm, Muqimi, Amiri, Feruz, Khislat, Kami, Central Asia.

Аннотация. В данной статье приведены сведения о причинах распространения байоизма в Средней Азии, возникновении школ байоизма, развитии байоизма в литературной среде Коканда, Хорезма, Ташкента, а также сведения о байоизме, составленные в конце XIX в. и начала 20 веков.

Ключевые слова. Школы Байоз, Байоизм, Ташкент, Коканд, Хорезм, Муками, Амири, Феруз, Хислат, Ками, Средняя Азия.

Milliy adabiyotimiz uchun yangi qirralarni kashf etishda mumtoz manbalar, ijodkorlar ro'yxatini yanada boyitishda bayoz janri muhim ahamiyat kasb etadi. O'tgan davrlar mobaynida devon, tazkira, kulliyot, majmua, antalogiya kabi janrlar bilan bir qatorda bayozlar ham O'rta Osiyo hududida keng jamoatchilik tomonidan sevib o'qiladigan muhim manba sifatida e'tibor qozongan. Bu kabi to'plamlar ma'lum g'oyalarni targ'ib qilmagani sababli xalq orasida keng miqyosda ommalashgan va taraqqiy etgan. Bayozlarning paydo bo'lishi haqidagi ma'lumotlarda dastlabki bayozlarning yaratilishi arab adabiyoti bilan bog'liq deb qaraladi. Ma'lumotlarga ko'ra dastlabki bayoz arabistonlik shoir Abu Tammom (796 - 843) tomonidan IX asr o'rtalarida tuzilgan. Abu Tammom islomgacha va islomdan keyin yashab ijod etgan shoirlar ijodiga oid bir qancha bayoz tuzishga muvaffaq bo'lgan va keyinchalik bu an'ana shogirdlari tomonidan davom ettirilib, to'liq takomiliga yetkazilgan³. Islom dinining keng yoyilishi va savdo-

³ Shukurova Z. Bayozlarning keng chiqishi va taraqqiyot omillari. Til va adabiyot ta'limi, 31-bet, T., 2023.

sotiq aloqalarining mustahkamlanishi arab madaniyati bilan birga arab adabiyotining ham keng yoyilishiga sabab bo'lgan. Arab adabiyoti ta'sirida boshqa mamlakatlar adabiyotida ham bir necha bayozlar paydo bo'la boshlagan. O'rta Osiyo hududida esa dastlabki bayozchilik namunalari qachon va kim tomonidan tuzilganligi hozirgacha aniqlanmagan. Ammo ayrim manbalarda keltirilishicha, O'rta Osiyo hududida XV asrda ham bayoznavislik mavjud bo'lgan. Bunga aynan XV asrda yaratilgan va hozirda Abu Rayhon Beruniy nomidagi Qo'lyozmalar institutida C 100 (249) inventar raqami bilan saqlanayotgan qo'lyozma yaqqol misol bo'lishi mumkin. Bu qo'lyozma milodiy 1442-yilda tuzilgan va unda 22ta Eron, Hindiston va O'rta Osiyo shoirlarining g'azal, qit'a, tarje'band kabi janrlarga oid asarlaridan namunalar o'rin olgan⁴. O'rta Osiyo hududida bayozchilikning eng taraqqiy etgan davri uch xonlik davri ya'ni XVII - XIX asrlarga to'g'ri keladi. Mavzu va hajm jihatdan ancha takomilga yetgan bayozlar aynan mana shu davrlarda yaratilgan. Bayozlarning taraqqiy etishi va xalqning bayozlarga nisbatan ehtiyojining ortib borishi keyinchalik O'rta Osiyoning turli hududlariga oid turli bayozchilik an'alarining, bu an'alar esa bir necha o'ziga xos bayozchilik maktablarining paydo bo'lishiga olib kelgan. Qo'qon, Xorazm, Toshkent, Buxoro kabi madaniyat rivojlangan katta shaharlarda o'ziga xos turli xususiyat va qonun-qoidalarga ega bo'lgan turli bayozchilik yo'nalishlari paydo bo'la boshlagan. Ayniqsa, Toshkent, Qo'qon, Xorazm kabi shaharlar adabiy muhitiga mansub bayozlar mavzu va hajm jihatdan rang-baranglikka ega.

Bu shaharlarda hukm surgan adabiy jarayonlar bir xil bo'lmaganidek, bayozchilik maktablari ham o'zaro bir-biridan farq qiluvchi xususiyatlarga ega bo'lgan.

Qo'qon xonligida adabiy muhitning tashkil topishi XVIII asrning birinchi yarmiga to'g'ri kelgan. Qo'qon adabiy muhitining eng gullagan va taraqqiy etgan davri esa Amir Umarxon hukmronligi davriga to'g'ri keladi. Amiriy taxallusi bilan ijod etgan va ko'plab ijodkor-u adabiyotga havasmand bo'lgan kishilarga ma'naviy hamda moddiy rahnamolik qilgan Amir Umarxon xalqning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy madaniy va ma'naviy jihatdan yuksalishi uchun harakat qilgan. Adabiyot va san'atni rivojlantirishda ko'plab imkoniyatlar va qulayliklar yaratgan. Aynan shunday maqsadda xonlik hududidagi barcha ijod ahlini, shoir-u yozuvchilarni o'z saroyida to'plab, adabiy kechalar uyushtirgan, shu orqali nafaqat saroyda balki butun xonlik hududida ijodiy jarayonni vujudga keltirgan. Bu jarayonda mumtoz adabiyotimizning tengsiz durdonalariga aylangan turli janrlarga oid bir qator asarlar dunyo yuzini ko'rdi. Ko'plab shoir-u ijodkorlar o'z istedodlarini namoyon qila oldi.

Qo'qon xonligida bayozchilikning keng ommalashuvi xalq tomonidan shu hududda yashab ijod etgan bir qator mumtoz adabiyot vakillarining ijodi bilan tanishishi va bu ijod namunalarining bugunga qadar yetib kelishi uchun imkon yaratgan. Shu jihatdan Qo'qon adabiy muhiti durdonalari bo'lmish devon, tazkira, doston, kulliyot-u hajviy asarlar,

⁴ Shukurova Z. Bayoz tuzish an'anasini va uning adabiy jarayondagi ahamiyati. – T: "Til va adabiyot ta'limi" jurnali, 7-son, 2022. 2-bet

chistonlar bilan bir qatorda bayozlar ham o'zining salmoqli o'rniga ega. Mumtoz adabiyotimizning yirik nomoyondalari bo'lmish Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Muhyi, Ho'qandiy, Nodira, Amiriy, Maxmur, Muhsiniy kabi ijodkorlarning ijod mahsullari qo'lyozma va toshbosma bayozlar tarkibida bizning zamonamizgacha yetib kelganligi gapimizning yaqqol isbotidir. Ayniqsa, Muqimiyni bayozchilik an'anasini davom ettirgan va rivojlantirishga hissa qo'shgan ijodkor sifatida ko'rsatishimiz mumkin. Hozirgi kunga qadar saqlanib qolgan 7521, 1325, 9309, 7688, 49,4100, 230.4046, 14.4078, 7050, inventar raqamli bayozlarda shaxsan Muqimiy o'z dastxati bilan ko'chirgan bir qancha ijodkorlarning bir necha turli janrlarga oid asarlari o'rin olgan.

Adabiyotshunos Yoqubjon Ishoqov 9309 raqamli bayoz haqida quyidagicha ma'lumot berib o'tgan: "Muqimiy tomonidan tuzilgan bayozni Qo'qon bayozchiligining go'zal namunasi sifatida keltirish mumkin. Muqimiy bu bayozni XIX asr oxirlarida do'sti Obidjon A'lam uchun tuzgan"⁵.

Bundan tashqari Muqimiy tomonidan tuzilgan "Cho'ntak bayozi" ham Qo'qon bayozchiligini o'rganish va tadqiq etishda muhim mabalardan biridir.

Qo'qon bayozchilik maktabining nodir namunasi sifatida Amiriy tomonidan tuzilgan Amiriy bayozini ham keltirish mumkin. Bu bayoz tarkibida turli janrlarga oid she'rlar uchraydi. Shuningdek, Haziniy Ho'qandiy she'rlari jamlangan va bir necha marotaba nashr ettirilgan "Bayozi Haziniy" Qo'qon adabiy muhitiga oid ijod namunalari bilan tanishishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xorazm adabiy muhitining eng rivojlangan va gullagan davri esa XIX asr oxiri - XX asr boshlari yani Muhammad Rahimxon Feruz hukmronligi davriga to'g'ri keladi. Bu davrda Muhammad Rahimxon II Komil Xorazmiy, Ahmad Tabibiy, Muhammad Yusuf Bayoniy, Ilyos Mulla Muhammad o'g'li So'fi, Mutrib Xonaxarobiy, Muhammad Yusuf Chokar, Avaz O'tar o'g'li kabi buyuk ijodkorlarga rahnamolik qilgan. Shuningdek, XIX asr oxiri va XX asrning boshlariga kelib shu davrlarda yashab, ijod etgan Xorazm shoirlari ijodidan ko'plab qo'lyozma bayozlar tuzila boshladi va bu shu davrda Xorazmda bayozchilik maktabining yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Xorazmda bayozchilik maktabining yuzaga kelishida va madaniy-adabiy muhitning jonlanishida mohir kotiblardan mulla Boltaniyoz Xarrot, mulla Karimbergan devon, ustod Muhammad Panoh, Xudoybergan Muxrkonlar yetarlicha hissa qo'shgan. Xorazm adabiy muhitida yaratilgan "Bayozi musaddasot", "Bayozi Majmuai ash'or", "Bayozi muxammasot" kabi bayozlar Xorazm bayozchilik maktabining nodir namunalari hisoblanadi.

XIX asr oxiri – XX asr boshlari Turkiston adabiyotida Toshkent adabiy muhitining o'ziga xos o'rnini bor. Bu davrda adabiy muhitning rivojlanishida ma'rifatparvar shoirlar Karimbek Kamiy, Gulshan, Almaiy, Abdulla Avloniy, Tavallo, Miskin, Xislat, Sidqiy Xondaliqiy, Abdulla Qodiriy kabi ijodkorlar muhim rol o'ynagan. Toshkent bayozchilik maktabining vujudga kelishi va taraqqiy etishida bir qancha she'riy namunalarni o'z

⁵ Ishoqov Y. Bayoz va bayozchilik tarixi. O'zbek adabiyoti tarixi masalalari. –T.: Fan, 1976.

ichiga olgan Xislat tomonidan tartib berilgan “Armug‘oni Xislat”, “Savg‘oti Xislat”, “Tuhfai Xislat”, “Hadyai Xislat” bayozlari eng muhim manbalar hisoblanadi. “Bayozi Miriy”, “Bayozi Kamiy”, “Bayozi Muhallo” bayozlari ham shular jumlasidandir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Adizova I. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – Toshkent: “Fan” nashriyoti, 2009. 248 bet.
2. Ishoqov Y. Bayoz va bayozchilik tarixi. O‘zbek adabiyoti tarixi masalalari. –T.: Fan, 1976.
3. Orzibekov R. O‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent:O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006. 270 bet.
4. Pardavey Q. Muqimiy dastxatlari. “ Filologiyaning umumnazariy masalalari” mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, 2-kitob. – Toshkent, 2020. 8 bet.
5. Qayumov A. Qo‘qon adabiy muhiti. - Toshkent, 1961. 370 bet
6. Shukurova Z. Bayoz tuzish an'anasi va uning adabiy jarayondagi ahamiyati. – Toshkent: “Til va adabiyot ta’limi” jurnali,7-son, 2022. 2 bet.
7. Shukurova Z., Azizullo O. O‘rta Osiyoda bayoz tuzish an‘anasining paydo bo‘lishi. “Lisoniy meros va tilshunoslik taraqqiyoti” xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Andijon, 2023. 469 bet.
8. Shukurova Z. Bayozlarning kelib chiqishi va taraqqiyot omillari. Til va adabiyot ta’limi, 31-bet. – T.,2023
9. www.ziyouz.com
10. www.cyberLeninka.com